

TURKISTON TARAQQIYPARVARLARNING TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI VA YANGI USUL MAKTABLARI

Ermuhammadova Shaxzoda Azimjon qizi

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri–XXasr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati vakillarining ta'lim sohasida amalga oshirgan islohotlari, jadidlarning ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini tahlil qilinadi.*

Yangi usul maktablarining jamiyat rivojlanishidagi o'rni ilmiy dalillar bilan asoslab beriladi

Abstract: *This article analyzes the reforms implemented in the field of education by representatives of the Jadid movement that emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, and the Jadids' contributions to the development of enlightenment.*

The role of new-method schools in the development of society is substantiated by scientific evidence

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются реформы, проведенные в сфере образования представителями движения джадидов, возникшего в Туркестане в конце XIX и начале XX веков, а также вклад джадидов в развитие просвещения.*

Роль школ, использующих новые методы обучения, в развитии общества подтверждается научными данными.

Kalitso'zlar: *Ma'rifatparvarlik. Jadidchilik, yangi usul maktablari. Dunyoviy fikrlar, Ta'lim islohotlari, Turkiston ijtimoiy hayoti*

Keywords: *Jadidism, new method schools. Secular ideas, Educational reforms, Social life of Turkestan*

Ключевые слова: *Просвещение, джадидизм, школы нового метода, светские идеи, реформы образования, общественная жизнь Туркестана.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi tarkibida yashar edi. Chor hukumati mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etib, iqtisodiy jihatdan ezdi. Bundan tashqari diniy va milliy qadriyatlarni kamsitdi.

Rivojlanishdan uzoq qolgan o'lka tobora qoloqlashib bordi. Ana shunday og'ir bir davrda xalqning ilg'or ziyolilari milliy uyg'onish g'oyasi bilan maydonga chiqib, jadidchilik harakatiga asos soldilar.

Turkiston jadidlarning ta'lim sohasidagi faoliyatlari. Jadidchilik harakatining shakllanishida qrimlik ma'rifatparvar Ismoilbek Gaspiralining xizmatlari alohida o'rin tutadi. U musulmon xalqlarini taraqqiyot sari chorlab, "usuli savtiya" yoki "usuli jadid" maktablarini yo'lga qo'ydi.

Turkistonda jadidchilik harakati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q, albatta. Uning vujudga kelishi uchun ma'lum bir obyektiv sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asr

o'rtalari va XX asr boshlarida jamiyatda yangilanish zarurati tug'ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy muammolar paydo bo'ldi. Ularni hal etish uchun bel bog'lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida "jadidlar" nomini oldi. Ushbu so'zning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini izohlagan prof. B.Qosimov shunday yozadi: "Jadid"ning ma'nosi yangi demakdir. U shunchaki yangi yo bo'lmasa "yangilik tarafdori" degani emas. Balki yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan"[1:5]..

Turkiston jadidlari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvorqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarning o'rni beqiyosdir. Ular ta'limni millatni tutib turuvchi asosiy ustun deb bilganlar. Siyosiy islohotlardan oldin inson tafakkurini o'zgartirish lozim edi, by esa faqatgina ta'limni yaxshilash orqali amalga oshardi. Jadid ma'rifatparvarlarining qiziqish va faoliyat doirasi g'oyat

keng bo'lib, ularning asosiy maqsadi xalqni ma'rifat yo'li bilan mustaqillikka olib chiqish edi.

Yangi usul maktablari jadidlarning eng muhim amaliy tashabbusi bo'ldi. Bu maktablar mazmun va metodika jihatdan eski maktablardan ancha farq qilar edi. Darslar jadvallar asosida o'tilar, o'quvchilar bilim darajasiga qarab guruhlariga ajratiladi. Jadid maktablarida diniy bilimlar bilan bir qatorda geometriya, tarix, ona tili va adabiyot matematika, tibbiyot kabi dunyoviy fanlar o'tilar edi. Bu fanlar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirib, real hayotga tayyorlaydi. Darslarda turli xil qo'lyozmalar, globuslar, ranglu xaritalardan foydalanilardi. Jadidlar yangi qo'llanmalar va darsliklar yaratdi. U qollanmalar orqali Vatanparvarlik, ilmga muhabbat g'oyalari singdirildi

Yangi usul maktablari qisqa vaqt ichida Turkistonning ko'plab shahar va qishloqlarida yoyildi. Toshkentda 1919-yilda 16 ta, Qo'qonda 24 ta, Andijonda 34 ta shunday maktab faoliyat ko'rsatdi. Ular atrofida teatr, matbuot, kutubxona va madaniy to'garaklar shakllanib, keng ma'rifiy muhit vujudga keldi. Jadidlar gazeta jurnallari va sahna asarlari orqali xalqni uyg'otdi va zamonaviy fikrlashga chorladi.

Shunday qilib, yangi usul maktablari nafaqat ta'lim maskani, balki milliy uyg'onish markazlariga aylandi. Jadidlar ayollar ta'limiga alohida e'tibor qaratdilar. Jamiyat taraqqiyotini ayollar savodxonligisiz tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlab, qizlar maktablarini ochishga harakat qildilar. Ilm olish erkak va ayol uchun barobar farz deb hisobladilar. Bu o'sha davr uchun jasoratli qarash edi va ma'rifatli oila – ma'rifatli jamiyat poydevori ekanligini ko'rsatdi. Turkiston jadidlarining ta'lim islohotlari va yangi usul maktablari mavzusiga qo'shimcha ma'lumotlar quyidagicha. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida chuqur iz qoldirdi, chunki ular nafaqat ta'lim tizimini yangilashga, balki xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o'zlikni anglash va mustamlakachilik zulmiga qarshi turishga intildilar[2.110].

Jadidlar o'z nashrlarida jahonda va Turkiston hududida ro'y berayotgan voqealar haqida ma'lumotlar berib borishdi. Ular bu orqali o'z g'oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanligini ko'rsatdilar. Ma'rifatparvarlar yangi usul maktablarining Turkistonda milliy kadrlar tayyorlash, yosh avlodni o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Turkistonda birinchi jadid maktabi 1898-yilda Qo'qonda ochildi. XIX asr

oxirida O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo'lgan bo'lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o'quvchilarning soni 4106 nafarga yetdi. 1910-yilda Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 1740 nafar bola o'qigan. 1917-yilga kelib o'lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud edi [3.92] Bu maktablar ko'pincha xususiy bo'lgan. Maktablar uchun alohida bino qurilmagan. Jadidlar o'z uylarida yoshlarga ilm, bergan.

Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta'limoti asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turar edi. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi.

Taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin-qizlar ta'limi masalasi alohida o'rin tutgan. Jadidlar, islom ma'rifatli bo'lishni istagan ayollarga to'sqinlik qilmaydi deb ta'kidladilar. Islom ilm o'rganishni erkaklarga ham, ayollarga ham farz deb hisoblashidan kelib chiqqan holda jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishda tashabbuskor bo'ldilar. Jadidchilik harakati namoyandalarining asosiy faoliyatlari ma'rifatparvarlikdan boshlangan bo'lsa-da, ularning ta'siri Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlarida g'oyaviy rahnamolari sifatida muhim o'rin tutadi.

Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag'lar yig'ildi. O'lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Turkistonda namoyish etilgan bunday tomoshalar o'lka mahalliy san'atkorlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or ma'rifatparvarlar va jadidlar yangicha g'oyalarini targ'ib etish uchun dramatik teatrning ulkan imkoniyatlarini tushunib yetdilar. Sovet hokimiyati dastlab jadidlarning ayrim tashabbuslarini qo'llab-quvvatlagandek bo'ldi. Ammo tez orada ular "xalq dushmani" sifatida ta'qib qilina boshladi. 1920-1930-yillarda Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Munavvarqori, Hamza, Qodiriy kabi yuzlab ziyolilar qamoqqa olinib, surgun qilindi yoki otib tashlandi.

Turkistonda jadidlarning g'oyalari xalq qalbidan o'chmadi. Mustaqillikka erishilgach, jadidlarning nomlari tiklandi, asarlari qayta nashr etildi. Bugungi O'zbekiston jadidlar orzularining amalga oshganini ifodalaydi: ozod va mustaqil davlat, erkin fikrlovchi millat, rivojlangan ta'lim tizimi, milliy teatr va matbuot. Ularning ma'rifatparvarlik faoliyati, ilmiy va siyosiy qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Turkiston jadidlari ta'lim islohotlari orqali jamiyatni modernizatsiya qilish yo'lini ochdilar. Yangi usul maktablari nafaqat savodxonlikni oshirdi, balki milliy uyg'onish va istiqlol g'oyalarini tarqatdi. Turkistonda jadidchilik harakati qisqa muddatli bo'lsada mazmunan boy tarixni qamrab oldi.

Bu harakat xalqni ma'rifat sari yetakladi.Ularning ozod, mustaqil, erkin fikrlovchi millat qurish orzusi hozirgi O'zbekiston hayotida o'z aksini topmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Косимов Б. Миллий уйғониш, жасорат, марифат, фидоилик–Т:Манавият 2002-Б.5
- 2 .Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –Toshkent. Sharq nashriyoti. 2005.110-bet
- 3 .9-sinf O'zbekiston tarixi. –Toshkent. Sharq nashriyoti. 2019.92-bet